


IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 24 889,9 mlrd so‘m, (dollar ekvivalentida 1 979,1 mln AQSh doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % ga o‘sdi.

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



1-yanvar holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 115,6 % ni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yo‘nalishlari kesimida quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

binolar va inshootlar qurilishi – 49,1 %;

fuqarolik obyektlarini qurish – 26,0 %;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi – 24,9 % ni tashkil qildi.

**Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi
2025- yil yanvar-dekabr**

	Jami	shu jumladan: mulkchilik shakllari bo‘yicha:	
		davlat	nodavlat
Jami investitsiyalar, mlrd so‘m	24 889,9	1 741,7	23 148,2
<i>shu jumladan: moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>			
davlat byudjeti mablag‘lari	1 176,5	893,5	283,0
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	38,1		38,1
korxonalar va aholi mablag‘lari	4 753,0	300,6	4 452,4
chet el investitsiyalari va kreditlari	18 795,2	547,6	18 247,6
bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	127,1	-	127,1
Tiklanish va taraqqiyot fondi	-	-	-

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta‘minot tizimini qo‘llab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan.

Qurilish ishlari 2025- yil yanvar-dekabr

	Qurilish ishlari, mlrd so‘m	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikro-firmalar	Norasmiy sektor

Jizzax viloyati	8 039,6	1 297,9	4 695,7	2 046,0
------------------------	----------------	----------------	----------------	----------------

shahar:

Jizzax	2 535,9	429,7	1 937,1	169,1
--------	---------	-------	---------	-------

tumanlar:


Arnasoy	86,5	11,1	51,0	24,4
Baxmal	185,5	13,0	74,6	97,9
G‘allaorol	256,2	15,5	147,5	93,2
Sharof Rashidov	1 048,2	244,4	691,4	112,4
Do‘stlik	206,5	17,4	96,6	92,5
Zomin	911,1	194,0	623,8	93,3
Zarbdor	145,2	5,9	72,3	67,0
Mirzacho‘l	81,6	6,3	40,3	35,0
Zafarobod	108,4	49,0	26,2	33,2
Paxtakor	281,4	47,7	168,8	64,9
Forish	268,1	14,4	194,0	59,7
Yangiobod	29,6	4,5	13,7	11,4

*Yuzapmupuuu kepak
Qurilish ishlari
hajmining taqsimlanishi,
foiz hisobida*

1. *Kichik korxon va mikrofirmalar.*

2. *Norasmiy sektor.*

3. *Yirik qurilish tashkilotlari.*



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 297,9 mlrd so‘mni, 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 188,7 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,2 % ga yetdi.



*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

(mlrd so'm)

Faoliyat turlarining nomi	Yanvar-dekabr					
	2023 yil	Umumiy hajmga nisbatan % da	2024 yil	Umumiy hajmga nisbatan % da	2025 yil	Umumiy hajmga nisbatan % +da
Jami	14 970,9	100,0	23 515,4	100,0	24 889,9	100,0
<i>shu jumladan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>						
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1063,2	7,1	2 580,30	11,0	5 555,3	22,3
tog'-kon sanoati	35,6	0,2	986,9	4,2	688,4	2,8
ishlab chiqarish sanoati	7581,7	50,6	9 768,4	41,5	7 288,4	29,3
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	2783	18,6	4 955,5	21,1	5 552,5	22,3
suv bilan ta'minlash, kana- lizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	491,6	3,3	258,2	1,1	400,1	1,6
qurilish	255,3	1,7	477,6	2,0	1 253,3	5,0
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	158,4	1,1	148,3	0,6	462,8	1,9
tashish va saqlash	103,7	0,7	103,5	0,4	927,9	3,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	418	2,8	195,3	0,8	137,7	0,6
axborot va aloqa	70,3	0,5	78,1	0,3	53,1	0,2
moliyaviy va sug'urta faoliyati	7,9	0,1	60,4	0,3	126,8	0,5
professional, ilmiy va texnik faoliyat	504,1	3,4	453,7	1,9	575,2	2,3
ta'lim	208,4	1,4	327,9	1,4	183,6	0,7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	226,2	1,5	401,2	1,7	233,1	0,9
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar - joy binolari qurilishiga investitsiyalar	697,7	4,7	609,7	2,6	1 092,0	4,4
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	118,1	0,8	57,8	0,2	58,3	0,1
boshqa faoliyat turlari	247,7	1,5	2052,6	8,9	301,4	1,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchlik xo'jaligida 5 555,3 mlrd so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 22,3 %), tog'-kon sanoatida – 688,4 mlrd so'm (2,8 %), ishlab chiqarish sanoatida – 7 288,4 mlrd so'm (29,3 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 5 552,5 mlrd so'm (22,3 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda – 400,1 mlrd so'm (1,6 %), qurilishda – 1 253,3 mlrd so'm (5,0 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 462,8 mlrd so'm (1,9 %), tashish va saqlashda – 927,9 mlrd so'm (3,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 137,7 mlrd so'm (0,6 %), axborot va aloqada 53,1 mlrd so'm (0,2 %), moliyaviy va sug'urta faoliyatida 126,8 mlrd so'm (0,5 %), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 575,2 mlrd so'm (2,3 %), ta'limda – 183,6 mlrd so'm (0,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 233,1 mlrd so'm (0,9 %), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 1092,0 mlrd so'mlik (4,4 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 18 795,2 mlrd so'mni yoki 2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,0 % ga ko'payganini ko'rish mumkin.

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi 2025- yil yanvar-dekabr

Investitsiya turlari	Umumiy hajmi (mlrd so'm)	Shu jumladan:	
		davlat kafolati ostida	to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar
Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar	18 795,2	735,0	18 060,2
shu jumladan:			
davlat	547,6	537,4	10,2
nodavlat	18 247,6	197,6	18 050,0


Hisobot davrida viloyat bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlari 97,1 % ga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar,
1-yanvar holatiga, birlikda**

	Shu jumladan:		o'tgan yilga nisbatan, foizda
	2025 yil	2026 yil	



Jizzax viloyati	1 061	1 226	115,5
<i>shahar:</i>			
Jizzax	440	499	113,4
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	26	36	138,5
Baxmal	39	42	107,7
G'allaorol	76	87	114,5
Sh. Rashidov	153	214	139,9
Do'stlik	28	32	114,3
Zomin	84	92	109,5
Zarbdor	47	43	91,5
Mirzacho'l	30	25	83,3
Zafarobod	23	24	104,3
Paxtakor	60	76	126,7
Forish	36	42	116,7
Yangiobod	19	14	73,7




Yuqoridagi jadvalda viloyat bo'yicha qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'payganligini ko'rish mumkin.


Qurilish ishlari 2025- yil yanvar-dekabr

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.


Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish hajmlarining ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 35,6 % ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga kamaydi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 24,1 % ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga ko'paydi.

Boshqa sohalarda xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 36,0 % ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8% ga kamaydi..


Xorijiy investitsiya va kreditlar bo'yicha yuqori ulushga ega tumanlar




O'tgan yilning mos davriga nisbatan tog'-kon sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar 3,5 % ga ko'paydi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi boshqa sohalarda hissasiga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 36,0 % ni tashkil qildi va 2024 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,8 % ga kamaydi, ishlab chiqarish sanoatida esa – 35,6 % ni tashkil qilib, 14,3 % ga kamayganligi kuzatildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investitsiyalar tarkibi



2025- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining shahar va tumanlar kesimida ifodalanishi

	<i>Investitsiyalar hajmi, mlrd so‘m</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga boshiga (ming so‘m)</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
Jizzax viloyati	24 889,9	100,8	16 035,2	98,9
<i>shahar:</i>				
Jizzax	4 861,7	100,6	24 103,6	98,5
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	1 371,5	2,2 m.	27 540,3	2,2 m.
Baxmal	909,7	102,2	5 165,7	101,2
G‘allaorol	2 572,4	103,8	13 370,1	102,2
Sharof Rashidov	3 006,3	50,7	11 929,8	49,6
Do‘stlik	801,0	119,2	11 218,4	117,5
Zomin	936,5	38,3	5 035,0	37,6
Zarbdor	531,2	105,8	5 453,7	104,3
Mirzacho‘l	1 344,9	143,3	23 719,9	141,3
Zafarobod	1 004,7	73,1	18 301,1	72,0
Paxtakor	961,8	165,6	11 574,0	162,9
Forish	5 520,4	167,2	54 984,1	164,7
Yangiobod	1 067,8	7,2 m.	35 238,9	7,1 m.

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

Uy–joy qurilishida 781,3 mlrd so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 3,2 % ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari

Obyekt turlari	Barcha manbalar hisobidan			
	2024 yil yanvar-dekabrida foydalanishga topshirildi		2025 yil yanvar-dekabrida foydalanishga topshirilgan	
	jami	shu jumladan: qishloq joylarda	jami	shu jumladan: qishloq joylarda
Uy-joy, umumiy maydoni ming kv.m	494,5	237,4	540,0	229,7
<i>undan:</i> yakka tartibdagi uy-joylar	494,5	237,4	540,0	229,7
yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda	-	-	-	-
Umumiy ta'lim va maxsus maktablar, o'quvchilar soni				
Suv tarmoqlari, km	197,9	154,7	410,4	354,2
Gaz tarmoqlari, km	21,4	8,7	13,3	7,8

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 540,0 ming kv. m bo'lgan 2 013 ta uy-joy (2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,2 %), shu jumladan qishloq joylarida 229,7 ming kv.m (96,8 %) maydonga ega 925 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 410,4 km suv tarmoqlari (shundan, 354,2 km qishloq joylarda) va 13,3 km gaz tarmoqlari (7,8 km qishloq joylarda) ishga tushirildi. Mos ravishda suv tarmoqlari qurilishiga 224,2 mlrd so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 4,9 mlrd so'm (2,2 %) va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 38,1 mlrd so'm (17,0 %) hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 181,2 mlrd so'm (umumiy hajmning 82,8%) o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 0,1 mlrd so'm to'liq aholi mablag'lari (umumiy hajmning 100,0 %) hisobidan o'zlashtirildi.

Qurilish faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 8 039,6 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2024- yilning mos davriga nisbatan 120,4 % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish ishlari tarkibi,


mlrd soʻmda

	yanvar-dekabr		
	2023- yil	2024- yil	2025- yil
Qurilish ishlari hajmi	5 942,9	6 405,7	8 039,6
<i>shu jumladan:</i>			
davlat	475,4	307,1	690,7
nodavlat	5 467,5	6 098,6	7 348,9


Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 7 348,9 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 91,4 % ni tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish tashkilotlarining oʻz kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)

2024 yil yanvar-dekabr



2025 yil yanvar-dekabr



■ Davlat mulki

■ Nodavlat mulki


Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi

Qurilish ishlari umumiy hajmining 73,9 % i binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 20,6 % i fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 5,5 % i ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 74,1 % i yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlash ishlariga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida viloyat bo‘yicha jami qurilish ishlarida nodavlat sektorning hajmi 7 348,9 mlrd so‘m, ulushi 91,6 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 74,1 % i yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga, 25,9 % i esa, kapital, joriy ta‘mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd so‘mda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 73,9 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,7 % punktga ko‘paydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi,
yanvar-dekabr oylarida

2024 yil

69,2 %



Bino va inshootlar
qurilishi

2025 yil

73,9%



Bino va inshootlar
qurilishi

26,1 %



Fuqarolik obyektlari
qurilishi

20,6 %



Fuqarolik obyektlari
qurilishi

100,0
%

4,7%



Ixtisoslashgan
inshootlar qurilishi

5,5 %




Ixtisoslashgan
inshootlar qurilishi

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 20,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga 5,5 % ulush to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 0,8% punktga ko'paydi.

2025 yil yanvar-dekabr oylarida tuman(shahar)lar kesimida qurilish ishlarining korxonalar toifasi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari, foizda



Viloyat bo'yicha yirik pudrat korxonalarini tomonidan bajarilgan qurilish ishlari o'tgan yilga nisbatan 88,7 % ga o'sdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarning o'sish sur'ati 110,6 % ni, norasmiy sektorni 117,3 % ni tashkil qildi.